PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING "SHARHU-L-AQOID" ASARI VA UNING RADIKAL OQIMLARGA RADDIYA BERISHDAGI AHAMIYATI

Saksonova Feruza Abdikarim qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasi
4-bosqich bakalavrianti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mutakallim olim Sa'duddin Taftazoniyning "Sharhu-l-aqoid an-nasafiya" asari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, uning aqidaviy masalalarni yoritishdagi o'rni hamda radikal va adashgan oqimlarga qarshi raddiya berishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda allomaning hayoti, ilmiy merosi, asarning yozilish uslubi va moturidiy ta'limotidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, asarda keltirilgan "ishboshilarga itoat" masalasi misolida xavorijiy va boshqa mutaassib oqimlarga berilgan ilmiy raddiyalar tahlil qilingan. Muallif "Sharhu-l-aqoid"ning bugungi kunda ham diniy bag'rikenglik, ijtimoiy barqarorlik va sof aqidani himoya qilishda muhim manba ekanini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Taftazoniy, Nasafiy, Sharhu-l-aqoid, moturidiylik, ahli sunna, aqida, radikal oqimlar, xavorij, mu'tazila, raddiya, mutakallim.

Islom ilmlari tarixida aqoid ilmi muhim o'rin egallaydi. Ushbu ilm musulmonlarning e'tiqodiy qarashlarini asoslash, himoya qilish va tushuntirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sohada ko'plab buyuk allomalar faoliyat olib borgan bo'lib, ulardan biri mashhur mutakallim olim Sa'duddin Taftazoniy hisoblanadi. Sa'duddin Taftazoniyning to'liq ismi Mas'ud ibn Qozi Faxruddin Umar ibn Mavlo Azim Burhonuddin Abdulloh ibn Imom Rabboniy Shamsul-Haqq Qoriy Samarqandiy Haraviy Taftazoniy Xurosoniy Hanafiy Ajamiy bo'lib, u Xurosonning Naso (hozirgi Turkmaniston, Ashxabod) vohasidagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan[1]. Mashhur muarrix olim Yoqut Hamaviyning (vaf. 626/1229 y.) ta'kidlashicha, Naso Xuroson viloyatida joylashgan voha bo'lib, uning havosi toza va iqlimi mo'tadil bo'lgan. Taftazon esa Nasodagi tog' ortida joylashgan katta qishloqning nomidir.

Sa'duddin Taftazoniy nahv, sarf, maoniy, bayon, usulul fiqh hamda furu'ul fiqh (hanafiy va shofeiy), mantiq, aqida, tafsir va boshqa ilm sohalari bo'yichayirik olim bo'lgan. Allomaning kunyasi "Abu Said" bo'lib, u nafaqat Islom olamida "ash-Shayx Sa'duddin", "al-Ustaz"(ustoz), "al-Imom al-Kabir" (katta imom), "Ustaz al-ulamo al-mutaaxxirin va sayyid al-fuzalo al-mutaqaddimin, mavlono sa'd al-milla va ad-din, mu'dil mizon al-ma'qul va al-manqul, muftih ag'son al-furu' va al-usul" (keyingi olimlar ustozi va keyingi fozil olimlar sayyidi, millat va din baxtlisi, naql va aql mezonining to'g'rilovchisi, usul va furu' shoxlari ochuvchisi), "al-Imom al-Alloma" (allomai imom), "Sa'd al-milla va ad-din" (millat va dinning baxtlisi), "Sa'd al-imom al-alloma al-faqih al-adib al-hanafiy" (hanafiy faqih adib olimlari imomining baxtlisi) va "Olim al-mashriq" (Sharqning olimi), "Hibr al-umma, shams al-aimma" (Ummat olimi, imomlar quyoshi), "al-Alloma as-saniy" (ikkinchi alloma) kabi nomlar bilan mashhur, balki o'zining geometriya, matematika, falsafa, mantiq, adabiyot kabi aniq va gumanitar fanlarga oid ko'plab qomusiy asarlari bilan jahon ilm-faniga katta hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof e'tiladi[2].

Tarixshunos olimlar Maqriziy va ibn Hajar Asqaloniy Taftazoniyning umr yo'llarini 712-791 hijriy hisobda, milodiy hisobda 1312-1389 yillar orasida bo'lganligini yozishadi[3]. Timurlangning hayoti va faoliyati haqida asarlari bilan mashur bo'lgan Shihobiddin ibn Arabshoh Taftazoniyning hayot vaqtlarini uning shogirdi A'lau Al-Buxoriy rivoyatlari asosida belgilaydi va yuqoridagi fikrni

[1] Alimov A. Moturidiy ulamolarning kalom ilmi rivojiga qo'shgan hissasi. // Moturidiylik jurnali. 2023. – № 3. – B. 138
[2] Polvonov O'. "Sa'duddin Taftazoniy asarlarida "imon" mavzusi bayoni" // Moturidiylik. – 2021. – № 2.
[3] Maqriziy T. A. "Durar al-uqud al-farida fi tarojim al-a'yon al-mufida". – Bayrut: Dor al-g'arb al-islomiy, 2007.

qo‘llab quvvatlaydi. Ikkinchi ma’lumot: “Taftazoniy 722 - hijriy yilda tug‘ilgan va 792 - hijriy yilda vafot etgan”ligi tog’risidagi qarash xususida: Saxaviy 792-yil voqealarida haqida so’zlar ekan, shu yilda vafot etganlar haqida so‘z yuritgach, u shunday yozadi: “Ibn Jazariy Taftazoniyni shu yilda (792 h.) vafotini zikr qilib, uning tug‘ilgan sanasini 722 - hijriy yil deb qayd etgan.[4]” Ibn Hajar Asqaloniy “Ad-Dururu al-Kamina” asarida esa, Taftazoniyning tarjimai holi haqida so‘z yurutib shunday yozadi: “U 792 - yil safar oyida vafot etdi. U zotning tug‘ilgan sanasi Ibn Jazariyning qo‘lyozmasiga ko‘ra 712 - hijriy yil, menga Shihobiddin ibn Arabshoh ham (shu haqida) zikr qilgan edi[5].” Bir necha dalillarga suyangan holda Sa’duddin Taftazoniyning hayot yillarini 722-792 hijriy yillar deb belgilay olamiz, bu esa milodiy 1322-1390 yillarga to‘g‘ri keladi[6].

Alloma Sa’duddin Taftazoniy qomusiy olim sifatida e’tirof etiladi. Uning turli dinga va dunyoga oid asarlari bu fikrning yaqqol isbotidir. Shu asarlari orasida aqoid ilmiga oid bo‘lganlari alohida e’tiborga loyiqdir. Chunki aynan aqida ilmi islom ilmlarining boshi hisoblangani sababli uni o‘rganish har bir musulmon uchun zarurdir. Taftazoniyning ushbu asarlari o‘zining uslubi, dalillarining qat’iyligi bilan boshqa kitoblardan ajralib turadi.

Bugungi kunda allomaning aqoid ilmiga doir oltita kitobi aniqlangan bo‘lib, ularni yozilish uslubiga ko‘ra ikkiga – “matn” va “sharh”ga tasniflash mumkin. Xususan, uning “Sharh al-aqoid” va “Sharh al-maqosid” nomli kitoblari sharh uslubida, “Maqosid at-tolibin” va “G‘oyatu tahzib al-kalom” esa, matn uslubida bitilgan. Mazkur kitoblar yozilganidan buyon olimlar va ilm ahlining doimo diqqat-e’tiborida bo‘lib, keng ommaga islom aqidasini to‘g‘ri tushunish va anglashda manfaatli manbalar vazifasini o‘tamoqda.

Sa’duddin Taftazoniyning aqoid ilmidagi birinchi asari “Sharh al-aqoid” bo‘lib, u hanafiy mazhabining yirik olimlaridan biri Abu Hafs Umar ibn Muhammad Nasafiy Samarqandiy (461–537/1068–1142) ning “al-Aqoid” nomli risolasiga yozilgan sharh hisoblanadi. Asar dastlab Dehli shahrida 1267/1851 nashr qilingan. Shuningdek, u usmonli turk, rus, ingliz va urdu kabi bir nechta tillarga ham tarjima qilinib, nashr etilgan. Darhaqiqat, bu kabi holatlar asarning aqoid ilmi, xususan, moturidiya ta’limotidagi ahamiyatini ko‘rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi[7]. Shu sababli hanafiy mazhabining yirik olimlari “Sharh al-aqoid an-nasafiya” asariga alohida katta e’tibor bilan qarashgan va o‘z navbatida unga sharh, hoshiya va taqrirlar yozganlar. Shuningdek, Taftazoniyning bu asari O‘rta asr madrasa ta’lim tizimida o‘quv darsligi sifatida keng miqyosda foydalanilgan. Ushbu asarga 61 ta hoshiya, 16 ta taqrir va ta’liqotlar bitilgan[8].

Sa’duddin Taftazoniy “Sharh al-aqoid an-nasafiya” asarida dastlab “kalom” atamasining kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari, yunon faylasuflarining kitoblarini arab tiliga tarjima qilinish sabablari, islom falsafasi bilan kalom ilmini qorishib ketish jihatlari, turli oqimlarni kelib chiqish sabablari, Abul Hasan Ash’ariyning mu’tazila firqasidan ajralib, Ahl as-sunna val-jamoa ta’limotiga asos solganligi hamda mu’taziliylar qarashlariga qarshi raddiyalar berganligi haqida to‘xtalib o‘tgan. Lekin, moturidiya ta’limotini shakllanishi va Ahl as-sunna val-jamoa tarkibiga kirishi haqida so‘z yuritmagan. Shuni ta’kidlash kerakki, Sa’duddin Taftazoniyning “Sharh al-aqoid an-nasafiya” asari moturidiya aqidasi bo‘yicha yozilgan. Shu nuqtai nazardan unga yozilgan sharh va hoshiyalar ham mazkur aqida asosida talqin qilingan. Buni quyidagi uchta masala asosida atroflicha ko‘rish mumkin. Aqoid ilmida eng bahsli masalalardan biri imon masalasi hisoblanadi. Imonning sharti masalasida

[4] Qalash Ziyovuddin. “At-Taftazoniy va aro’uhu-l-balog‘iyya”. – Damashq: Dor an-navodir, 2010. – B. 27
[5] Asqaloniy Shihobuddin Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Hajar. “Ad-durar al-komina fi a’yon al-mi’a as-samina”. – Haydarobod: Doirat al-ma’orif al-usmoniyya, 2006. – B. 120
[6] Masharifov D. Arab tilshunosligida sa’duddin taftazoniyning ilmiy m’rosi. // New century innovations jurnali. 2025. № 2. – B. 189-190.
[7] O‘.Palvanov. Sa’duddin Taftazoniyning temuriylar davri moturidiya ta’limoti rivojiga qo‘shgan hissasi / monografiya. – T.: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020. – B. 54
[8] Alloqulov A. “Aqoidu-n-Nasafiy” va unga yozilgan sharhlar // Imom al-Buxoriy saboqlari jurnali: № 2. – Toshkent, 2009. – B. 157.

turli qarashlar mavjud. Ba'zilar imonning sharti til bilan iqror bo'lish, qalb bilan tasdiqlash va ruknlarni bajarishdan iborat deganlar. Hanafiy mazhabida esa, imonning sharti ikkita deb hisoblanadi. Ya'ni, til bilan iqror bo'lish va qalb bilan tasdiqlashdan iborat. Sa'duddin Taftazoniy "Sharh al-aqoid an-nasafiya" asarida ham bu xususda turli fikrlarni keltirib, imon shartining til bilan iqror bo'lish va qalb bilan tasdiqlashdan iborat va amallarni imon shartiga kirmasligini aytgan[9]. Shuningdek, mazkur fikrini alloma o'zining kalom ilmiga oid yana bir asari "Sharh al-maqosid"da davom ettirib, dalillar bilan batafsil isbotlashga harakat qilgan. "Sharh al-aqoid an-nasafiya" asariga yozilgan sharh va hoshiyalarida ham imon sharti til bilan iqror bo'lish va qalb bilan tasdiqlashdir deb ta'kidlangan.

Sa'duddin Taftazoniy Imom Umar Nasafiyning "al-Aqoid" asariga sharh yozish sababini quyidagicha bayon qiladi:

"Uni shunday sharhlashga harakat qildimki, undagi umumiy (mujmal) joylarni tafsilot bilan ochib bersin, mushkul o'rinlarini bayon qilsin, qisqa ifodalangan ma'nolarini keng yoysin, yashirin jihatlarini ochib ko'rsatsin, so'zlarni tozalab, aniqlashtirish orqali yo'naltirish bersin, maqsadlarni tushuntirish bilan yoritib bersin, masalalarni mustahkam bayondan so'ng tahqiq qilsin, dalillarni tartiblab keltirgandan keyin nozik tahlil qilsin, maqsadlarni muqaddimadan keyin sharhlab bersin, foydalarni ko'paytirsin, shu bilan birga ortiqcha so'zlardan xoli bo'lsin; bayonni cho'zib yuborish va o'quvchini zeriktirishdan saqlansin hamda ikki chekka – ortiqcha cho'zish (itnob) va haddan tashqari qisqartirish (ixlol)dan uzoq bo'lsin.[10]"

"Sharhu-l-Aqoid"ning o'zi sharh yozilgan aqida matnidan ham mashhur bo'lib ketishini uning mazmunidan ko'ra ko'proq uslubiga bog'lash mumkin. Asarda turli yondashuvlar muayyan uyg'unlik asosida birgalikda bayon qilinishga harakat qilinganligi sababli mavzular qisqa va tushunarli tarzda izohlangan. "Sharhu-l-Aqoid"da o'rni kelganda Moturidiy va Ash'ariy qarashlar tanqid qilingan, biroq falsafiy masalalarga haddan tashqari chuqur kirilmagan[11]. Shu nuqtai nazardan asarning umumiy yondashuvi naqlga yaqinroq ekani ko'rinsa-da, munozaralardagi uslubi sababli metod jihatidan aqlni asos qilgan asar ekanini aytish mumkin[12].

Ifodaviy jihatdan "Sharhu-l-Aqoid"ning uslubi qisqa, tushunarli va turli darajadagi ilm egalari anglay oladigan tarzda sodda deya baholanishi mumkin[13]. Aslida bu holat "Sharhu-l-Aqoid"da sharhlangan "Aqoid an-Nasafiy" uchun ham xosdir[14]. Shunday ekan, "Aqoidi Nasafiy" bilan boshlangan sodda uslub "Sharhu-l-Aqoid" orqali davom etganini aytish mumkin.

Taftazoniyni o'z mazhabining himoyachisi sifatida muxoliflarini kamsitishga uringan yoki boshqa bir mazhab qarashlarini oldinga surishga harakat qilgan deb tushunish sog'lom yondashuv emas. Chunki u ba'zan moturidiy yo'nalishni tanqid qilsa, ba'zan esa ularga moyillik bildiruvchi munosabat namoyon qiladi. Xuddi shuningdek, ash'ariy yo'nalishni ham ba'zan tanqid qiladi, ba'zan esa ma'qullaydi[15].

Shu bois Taftazoniyning tanqidlarini ijtimoiy-siyosiy chiqish sifatida baholash to'g'ri emas. Shu nuqtai nazardan, Taftazoniyning "Sharhu-l-aqoid"dagi ayrim qarashlarini ahli sunna aqidasiga zid

---

[9] Siddiqov S. Sa'duddin Taftazoniy "Sharh al-maqosid" asarining islom aqidasini o'rganishdagi o'rni. – T.: Toshkent Islom universiteti, 2011. – B.68

[10] Sa'duddin Taftazoniy. Sharh al-aqoid an-nasafiyya / Tahqiq: Ahmad Hijoziy as-Saqqo. – Qohira: Maktabat al-kulliyot al-Azhariyya, 1408 h./1988 m. – B. 9.

[11] Özen Ş. "Teftâzânî" maddesi // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – C. 40. – S. 304;

[12] Yavuz Y. Ş. "Akäidü'n-Nesefi" maddesi // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV Yayınları, 1989. – C. 2. – S. 218.

[13] Özen Ş. "Teftâzânî" maddesi // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – C. 40. – B. 304; Uludağ S. Şerhu'l-Akaid Tercümesi. – S. 61.

[14] Aslantürk A. H. "Nesefi Necmeddin" maddesi // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV Yayınları, 2006. – C. 32. – B. 572;

[15] Çağlayan H. "Şerhu'l-Akâid ve Kelâmî Değeri Üzerine Bir Deneme" // Bozok Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi (BOZİFDER). – 2018. – № 14. – B. 39.

deb bilib, shu sababli uni takfir qilgan Abdulatif Kirmoniy[16] kabi olimlarning me'yordan oshgan ifodalarini haddan oshish sifatida baholash lozim.

"Sharhu-l-aqoid" sunniy yondashuvlarga nisbatan ko'rsatgan munosabatining aynisini mu'tazila, ja'fariyya va zaydiyya kabi boshqa mazhablarga nisbatan ko'rsatmaydi. Ayniqsa, "Sharhu-l-aqoid" yozilgan davrda tarafdorlari deyarli qolmagan mu'tazila kabi mazhablar nomi tilga olingan har bir joyda tanqid qilinib, kamsitishga urinish kuzatiladi[17].

Har zamonda islomning sof aqidasiga qarshi buzg'unchi g'oyalarni ilgari suruvchi oqimlar topiladi. Alloma Sa'duddin Taftazoniy yashagan davrda ham ushbu holat avjiga chiqqan, ularga qarshi kurash esa mutakallim olimlarning zimmasiga tushgan mas'uliyatli ishlardan biri edi. Taftazoniy ushbu vazifani ayniqsa, o'zining "Sharhu-l-aqoid" asari orqali tamomiga yetkazdi. Buning isboti olim tomonidan berilgan mukammal raddiyalarda mujassamdir.

Ma'lumki, davlat tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidalarga to'g'ri va to'liq, shuningdek, majburiyatni his qilgan holda amal qilish har bir shaxsning fuqarolik burchi hisoblanadi. Bu masala tarixiy davrlar davomida sayqallanib kelgan ijtimoiy voqelik bo'lib, adolatli davlat boshlig'iga itoat qilish hamda uning buyruqlarini bajarishda yelkadosh bo'lish Sharq davlatchilik an'analarida muhim tamoyillardan biri sifatida e'tirof etilgan. Xalq orasida keng tarqalgan "Podsho amri vojib" degan naql ham asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan ijtimoiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotida yuz bergan yuqoridagi jihatlarni o'z davrida islom ma'rifati va yuksak ratsional tafakkur uyg'unligida asoslab bergan buyuk mutafakkir Sa'duddin Taftazoniyning konseptual g'oyalari bugungi kun nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy davr kontekstida yaratilgan bo'lishiga qaramay, Taftazoniyning ilmiy g'oyalari bugungi kun ijtimoiy-siyosiy masalalari yechimida ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, sharqona demokratiya tamoyillarini o'zida mujassam etgan holda yuksak taraqqiy etgan fuqarolik jamiyatini barpo etishda qimmatli manbalardan biri sifatida tadqiq etiladi.

Shu jihatdan olganda, Abu Hafs Umar Nasafiyning "Aqoid" asari hamda ushbu asarga sharh sifatida yozilgan Sa'duddin Taftazoniyning "Sharh al-aqoid" asari islom olamida kalom ilmi borasidagi eng mashhur manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur asar tarkibiy jihatdan kalom ilmiga oid bir qator mavzularni qamrab oladi.

Jumladan, Abu Hafs Umar Nasafiy tomonidan yozilgan "Sultonga qarshi bosh ko'tarib chiqilmaydi" rukni ostidagi mavzuda quyidagi jumlalar keltiriladi[18]. Mazmuni:

"Sunniylik e'tiqodi va hanafiy mazhabi ulamolari ixtiyor etgan so'zlarga ko'ra, ishboshilarga qarshi chiqilmaydi, agarda ularda fosiqlik alomatlari va raiyatga nisbatan zulm sodir bo'lgan bo'lsa ham, ularga ergashgan holda orqalaridan turib jamoat namozlari va iyd namozlari o'qilaveradi. Bu masala yuzasidan oldin o'tgan solih ulamolar ham xuddi shunday fikrda bo'lishgan. Faqatgina xavorijlar firqasi bu fikrga qarshi chiqishgan"[19].

Yuqoridagi holatda mutafakkir Nasafiy so'zlari ilmiy uslubda yuksak mahorat bilan ifodalanganligini ko'rish mumkin. Huquqiy (fiqhiy) masalalar qisqa va lo'nda, hamma uchun tushunarli, ixcham, rasmiyatchilik va badiiylikdan holi tarzda yozilgan. Aqliy va naqliy dalillar keltirilmagan. Bu esa normativ qonun kuchiga ega bo'lgan har bir huquqiy masalani o'quvchi tomonidan tezroq o'zlashtirish imkonini beradi. Asarda yoritilgan barcha huquqiy masalalar yuqorida ta'kidlangan tartibda bayon etilgan.

---

[16] Özen Ş. "Teftâzânî Maddesi" // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV Yayınları, 2011. – C. 40. – B. 302;

[17] Uludağ S. "Şerhu'l-Akâid Tercümesi". – İstanbul: Dergâh Yayınları, 1991. – B. 80-82.

[18] Norqobilov M. X. Sa'duddin Taftazoniyning "Sharh al-aqoid" asarida "ishboshilarga itoat" masalasi jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 2, № 1. – B. 866.

[19] Taftazoniy S. Sharh al-aqoid an-Nasafiy. – Karachi: Maktabat ul-Bushro, 2009. – B. 367–368.

Abu Hafs Nasafiyning muhokama qilinayotgan aqidaviy masala yuzasidan fikri tugallangandan so‘ng, Taftazoniyning mazkur masala bo‘yicha sharhi boshlanadi. Nasafiyning “sultonga qarshi bosh ko‘tarib chiqilmaydi” rukni ostidagi fikrlari Taftazoniy tomonidan quyidagicha sharhlanadi.

Mazmuni:

“Oldin o‘tgan solih kishilar ishboshilarga itoat qilish aqidasiga ham qalban, ham jisman bo‘ysunar edilar va bunga naqliy dalil ham keltirishgan. Tobeinlardan bo‘lgan Ziyod al-Adaviy aytadilar: “Abu Bakra bilan birga Ibn Omir huzurida edik. U yomon kiyimlarini kiyib, odamlarga xutba qilar edi. Shunda men: “Amirimizga qaranglar, u fosiqlarning kiyimini kiyib olibdi”, dedim. U: “Jim bo‘l! Men Rasulullo (s.a.v.)ning: “Kim Allohning yerdagi sultonini xor qilsa, Alloh uni xor qiladi”, deganlarini eshitganman”, dedi”[20].

Mutafakkirlarning yuqorida ta’kidlangan qarashlari analogik jihatdan tahlil qilinganda, Abu Hafs Nasafiy bir vaqtning o‘zida huquqiy (fiqhiy) masalani bayon qilish bilan birga, o‘sha davr va makonda faoliyat yuritgan xavorijlar firqasining mazkur masalaga bo‘lgan munosabatini ham raddiya shaklida ifodalaganligini ko‘rish mumkin.

“Sultonga qarshi bosh ko‘tarib chiqilmaydi” deb nomlanuvchi dialektik mavzu yuzasidan yuqorida bayon etilgan qarashlarning naqliy dalillardagi ifodasini keltirishga harakat qildik[21].

Naqliy dalillarning avvali bo‘lgan Qur’oni Karimning Niso surasi 59-oyatida: “Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg‘ambarga va o‘zingizdan bo‘lgan ishboshilarga itoat qiling. Biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsangiz, uni Allohga va Payg‘ambarga qaytaring. Ana shunday qilish xayrli va oqibati yaxshidir”[22], deb marhamat qilingan. Mazkur oyatda Yaratuvchining insoniyat jamoasiga itoat qilish borasidagi hukmlarining ilohiy va insoniy bosqichlari bayon etiladi. Shuningdek, mutafakkirning axloqiy qarashlarida hurmat va tavoze kabi sharqona fazilatlar murosasozlikning yuksak namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Amr ibn Osdan rivoyat qilingan hadisda Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Kim rahbarga chin ko‘ngildan qo‘l berib bay’at qilsa, toqati yetgunicha unga itoat qilsin”[23], deb marhamat qilganlar. Rahbarga itoatsizlik esa jamiyat ijtimoiy barqarorligiga rahna soluvchi hamda jamoa a’zolari orasida destruktiv kayfiyatni targ‘ib qiluvchi omil sifatida baholanadi. Demak, har bir fuqaro o‘z zimmasidagi huquq va majburiyatlarni ado etishda, biror masala yuzasidan nizolashayotgan insonlar orasida adolat bilan hukm yuritishda va boshqa ishlarda avvalo Yaratuvchiga, so‘ng Payg‘ambar (s.a.v.)ga, undan keyin esa ishboshilarga itoat etmog‘i lozim[24].

Moturidiylik ta’limotiga ko‘ra, har qanday rahbarga, hatto u zolim bo‘lsa ham, itoat qilish hamda unga qarshi chiqmaslik lozim. Chunki u ko‘pchilik tomonidan saylangan bo‘lib, ozchilikning ko‘pchilikka ergashishi lozimligi mo‘tabar manbalarda ta’kidlangan.

Mo‘taziliylarning “adolatsiz rahbar” haqidagi g‘oyasini keyinchalik Taqiyuddin Nabahoniy (1909–1979) asos solgan Hizbut tahrir (Islom ozodlik partiyasi) norasmiy diniy-siyosiy partiyasi tomonidan amaliyotda qo‘llanilgani kuzatilgan. Ahli sunna olimlari bu qarashga raddiya berganlar. Jumladan, muhaddis olim Sayyid Muhammad Rashid Rizo (vaf. 1966)ning keltirishicha, “xalifa”, “imom” va “mo‘minlar amiri” so‘zlari bir xil ma’noga ega bo‘lib, din va dunyo manfaatlarini o‘zida jamlagan boshqaruvchini anglatadi[25].

---

[20] Taftazoniy S. Sharh al-aqoid an-Nasafiy. – Karachi: Maktabat ul-Bushro, 2009. – B. 367

[21] Norqobilov M. X. “Philosophical Interpretation of Socio-Political Issues in Sa'deddin Taftazani's “Sharh al-Aqeed”” // EPRA International Journal of Research & Development (IJRD). – 2020. – T. 5, № 5. – B. 177–178.

[22] Abdulaziz Mansur. “Qur’oni karim” o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.

[23] Tulepov A. “Islom va aqidaparast oqimlar”. – Toshkent: Sharq NMAK, 2013. – B. 119.

[24] Norqobilov M. X. Sa’duddin Taftazoniyning “Sharh al-aqoid” asarida “ishboshilarga itoat” masalasi jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim omili sifatida // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 2, № 1. – B. 869.

[25] Daminov I. “Mo‘taziliylik oqimi aqidaviy qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlari” // Moturidiylik. – 2022. – № 2. – B. 9-10.

Sa'duddin Taftazoniyning fikricha, xalifalik "ko'p shaxslar orasidan tanlangan bir shaxsning din va dunyo ishlarida umumiy rahbarligidir". Olim umumiy rahbarning zarurligini to'rt jihatdan dalillagan: 1. Ijmo', ya'ni sahobalarning yakdillik bilan fikr bildirishi; 2. Hudud-chegaralarni qo'riqlash; 3. Xalq manfaatlarini himoya qilish va zararli narsalarni daf qilish; 4. Qur'on va sunnatga itoat qilish[26].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Taftazoniyning "Sharh al-Aqoid" asarida "sultonga qarshi bosh ko'tarib chiqilmaydi" mavzusi jamiyatda paydo bo'ladigan muayyan masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan shaxslarning o'z vazifalariga nisbatan adolat va insof bilan yondashuvi hamda buning natijasida jamiyat a'zolari orasida tinchlik-totuvlik, murosasozlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat ruhidagi hamkorlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishda nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Kezi kelganda shuni ham alohida qayd etish kerakki, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalq va davlat manfaatlari yo'lida olib borayotgan pragmatik siyosati alohida e'tirofga loyiq. Xususan, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" shiori ostidagi konseptual tamoyil asosida rahbarlarning aholi oldida hisobot berish tizimining joriy etilishi mutafakkir Taftazoniy asaridagi "ishboshilar"ning boshqaruv sohasidagi insoniy va kasbiy sifatlari haqidagi qarashlarning amaliy namunasidir. Bu esa Taftazoniy asarlarining asrlar osha o'zining ratsional tafakkur va ma'rifiy ahamiyatini yo'qotmaganidan dalolat beradi[27].

Xulosa qilib aytganda, Sa'duddin Taftazoniyning "Sharhu-l-aqoid" asari ahli sunna aqidasini ilmiy asosda bayon qilgan muhim manbalardan biridir. Asarda aqidaviy masalalar aqliy va naqliy dalillar asosida tushuntirilib, adashgan oqimlarning qarashlariga raddiyalar berilgan. Ayniqsa, xavorij va mutaassib guruhlarning noto'g'ri qarashlariga qarshi mo'tadil yondashuv ilgari surilgan. Shu jihatdan asar bugungi kunda ham diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, yoshlarni radikal g'oyalardan himoya qilish va sof aqidani targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Alimov A. Moturidiy ulamolarning kalom ilmi rivojiga qo'shgan hissasi. // Moturidiylik jurnali, 2023. № 3.
2. Polvonov O'. "Sa'duddin Taftazoniy asarlarida "imon" mavzusi bayoni" // Moturidiylik, 2021. № 2.
3. Maqriziy T. A. "Durar al-uqud al-farida fi tarojim al-a'yon al-mufida". – Bayrut: Dor al-g'arb al-islomiy, 2007.
4. Qalash Ziyovuddin. "At-Taftazoniy va aro'uhu-l-balog'iyya". – Damashq: Dor an-navodir, 2010.
5. Asqaloniy Shihobuddin Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Hajar. "Ad-durar al-komina fi a'yon al-mi'a as-samina". – Haydarobod: Doirat al-ma'orif al-usmoniyya, 2006.
6. Masharifov D. Arab tilshunosligida sa'duddin taftazoniyning ilmiy m'rosi. // New century innovations jurnali, 2025. № 2.
7. O'.Palvanov. Sa'duddin Taftazoniyning temuriylar davri moturidiya ta'limoti rivojiga qo'shgan hissasi // monografiya. – T.: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020.
8. Alloqulov A. "Aqoidu-n-Nasafiy" va unga yozilgan sharhlar // Imom al-Buxoriy saboqlari jurnali: № 2. – Toshkent, 2009. – B. 157.
9. Siddiqov S. Sa'duddin Taftazoniy "Sharh al-maqosid" asarining islom aqidasini o'rganishdagi o'rni. – T.: Toshkent Islom universiteti, 2011.
10. Sa'duddin Taftazoniy. Sharh al-aqoid an-nasafiyya / Tahqiq: Ahmad Hijoziy as-Saqqo. – Qohira: Maktabat al-kulliyot al-Azhariyya, 1988.

[26] Rizo S. M. "Al-Xilofa va-l-imoma al-uzma". – Qohira: Matba'at al-Manor, 1922. – B. 11.
[27] Norqobilov M. X. "Sa'duddin Taftazoniyning siyosiy-boshqaruv sohasidagi qarashlari va uning tarixiy ahamiyati" // Moturidiylik. – 2022. – № 3. – B.56.

11. Yavuz Y. Ş. “Akäidü’n-Nesefi” maddesi // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV Yayınları, 1989. – C. 2.
12. Aslantürk A. H. “Nesefi Necmeddin” maddesi // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV Yayınları, 2006. – C. 32.
13. Çağlayan H. “Şerhu’l-Akâid ve Kelâmî Değeri Üzerine Bir Deneme” // Bozok Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi (BOZİFDER), 2018. – № 14.
14. Özen Ş. “Teftâzânî Maddesi” // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV Yayınları, 2011. – C. 40.
15. Uludağ S. “Şerhu’l-Akâid Tercümesi”. – İstanbul: Dergâh Yayınları, 1991.
16. Norqobilov M. X. Sa’duddin Taftazoniyning “Sharh al-aqoid” asarida “ishboshilarga itoat” masalasi jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim omili sifatida // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2022. – T. 2, № 1.
17. Taftazoniy S. Sharh al-aqoid an-Nasafiy. – Karachi: Maktabat ul-Bushro, 2009.
18. Norqobilov M. X. “Philosophical Interpretation of Socio-Political Issues in Sa’deddin Taftazani’s “Sharh al-Aqeed”” // EPRA International Journal of Research & Development (IJRD), 2020. – T. 5, № 5.
19. Abdulaziz Mansur. “Qur’oni karim” o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.
20. Tulepov A. “Islom va aqidaparast oqimlar”. – Toshkent: Sharq NMAK, 2013.
21. Daminov I. “Mo‘taziliylik oqimi aqidaviy qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlari” // Moturidiylik, 2022. – № 2.
22. Norqobilov M. X. “Sa’duddin Taftazoniyning siyosiy-boshqaruv sohasidagi qarashlari va uning tarixiy ahamiyati” // Moturidiylik. – 2022. – № 3. – B.56.
23. Rizo S. M. “Al-Xilofa va-l-imoma al-uzma”. – Qohira: Matba’at al-Manor, 1922. – B. 11.